



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2025



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar





YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2-JILD 2-SON



YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

TO'PLAMI

2 - JILD, 2 - SON

2025

Google Scholar



zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Academic
Resource
Index
ResearchBib

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOGNITIV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Dilfuza URMONOVA

Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi
o'qituvchisi, PhD

Annotasiya: Maqolada integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning kognitiv faoliyatini oshirish, o'qitishning ko'p tamoyillari, jumladan, ta'lim oluvchilarning ma'lum fanlarga oid u yoki bu bilimlarini amaliy faoliyatga tatbiq etishi; nazariyaning amaliyot bilan, umumta'limning kasbiy ta'lim bilan o'zaro bog'lanishi; o'rganilayotgan fanlarning o'zaro aloqador masalalari, ona tili va adabiyot darslarida ta'lim oluvchilarni kasbga yo'naltirish, ushbu darslarining samaradorligini oshirish vositasi sifatida binar darslaridan foydalanish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: integrativ yondashuv, kognitiv faoliyat, kasbga yo'naltirish, binar dars, kolloboratsiya, didaktikaning "oltin qoidasi", kognitiv faoliyat, kommunikativ, nutqiy, lingvistik, paralingvistik kompetensiyalar.

Bugungi ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri Yangi O'zbekiston yoshlarini har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma'naviyatli, barkamol shaxs, raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishlarini ta'minlash, maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish orqali mustaqil hayotga tayyorlashdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020- yil 6-noyabrdagi PF-6108 sonli Farmonida "Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarni tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish " belgilab qo'yilgan. Zamonaviy dunyodagi yetuk kadr kreativ, tezkor, mantiqiy fikrlashi, jamoa bilan ishlay olishi uchun kirishimli bo'lishi, liderlik qobiliyatiga ega bo'lishi, o'z mustaqil fikrlari va yangi g'oyalarini dadil himoya qilishi, asoslay olishi kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. O'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy - kommunikativ, til qurilishiga oid o'zlashtirilgan lingvistik bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, egallangan bilimlarning amaliy imkoniyatlaridan o'rinli foydalana olish qobiliyatini rivojlantirish bugungi ona tili va adabiyot fanini o'qitishning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi. Ona tili va adabiyot darslarida





ta'lim oluvchilarni kasbga yo'naltirish turli interfaol metodlar, jumladan, binar metodini qo'llash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Binar dars – ta'lim oluvchilarda bilimdonlikni tarkib toptirish imkonini beradigan mujassamlashgan dars hisoblanadi. Binar dars asosiy dars mavzusini unga yaqin bo'lgan yondosh fan mavzusi bilan bog'lab o'qitishdir. Bunday dars ikki yoki uch nazariy fan yoki kasbiy modullarning tarkibiy qismlari birlashtirilgan o'quv jarayoni bo'lib, fanlararo aloqalarni amalga oshirish shakli hisoblanadi. An'anaviy ta'limdan farqli ravishda binar mashg'ulotida ikki mutaxassis pedagog birgalikda ma'lum mavzu bo'yicha ta'lim beradilar. Mashg'ulotda ikki o'qituvchi (biri amaliyotchi trener bo'lishi mumkin) va ta'lim oluvchilar o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadilar. Binar darsda bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy qo'llash uchun sharoit yaratiladi, ta'lim oluvchilarga o'z ishlarining natijalarini ko'rish, undan quvonch va mamnuniyat olish imkoniyati beriladi. Binar darslarda kognitiv faoliyatni tashkil qilish va kommunikativ, nutqiy, lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirish, olingan bilimlarni amalda qo'llash mumkin bo'ladi. Ta'lim oluvchilarda darslarga qiziqish kuchayadi va o'quv materialini yodlash, tushunish hamda o'zlashtirish tezligi ta'minlanadi. Ushbu darslarda ta'lim oluvchilarning rivojlanishi uchun mulohaza yuritish, muammolarni hal qilish imkoniyati yaratiladi.

Binar darsda o'qitishning ko'p tamoyillari amalga oshiriladi, jumladan, quyidagilar eng muhimlaridir: ta'lim oluvchilarning ma'lum fanlarga oid u yoki bu bilimlarini amaliy faoliyatga tatbiq etishi; nazariyaning amaliyot bilan umumta'limning kasbiy ta'lim bilan o'zaro bog'lanishi; kasbiy yo'naltirilganlik o'rganilayotgan o'zaro aloqador masalalar, o'quv materiallarda ilk amaliy kasbiy ko'nikma va malakalarga yo'naltirilganligi, ta'lim oluvchilar uchun kolloborativ - hamkorlik muhiti yaratilganligi.

Olim M.I.Maxmutov ta'limning binar metodini quyidagicha tasniflaydi:[14.3]

O'rgatish metodlari	O'rganish metodlari
Axborot -ma'lumotli	Ijro etish (bajarish)
Tushuntirishli	Reproduktiv
Ko'rgazmali-amaliy	Ijodiy-amaliy
Tushuntirishli-undovchi	Qisman izlanishli
Undovchi	Izlanishli

Binar mashg'ulotlari ta'lim oluvchilarning faolligini oshiradi, ijodiy, kritik, kreativ fikrlashga undaydi; voqelikni atroflicha bilish va anglashga, sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga, mulohaza yuritishga chorlaydi. Binar darslaridagi mulohaza- munozara jarayonida o'quvchilar o'z nuqtayi-nazarlarini o'gzaki va yozma bayon etadilar. Nazariy ma'lumotlarni amalda



qo'llaydilar. Bu jarayonda lingvistik kompetensiyalari takomillashadi. Binar dars bir vaqtning o'zida kognitiv faoliyat va amaliy ko'nikmalarni va shu ko'nikmalarni shakllantiruvchi fanlararo aloqalarni amalga oshirish uchun qo'llanadigan interfaol ta'lim shaklidir.

Binar darsining asosiy afzalliklaridan biri o'quvchilarda bilimlar tizimini yaratish, ob'ektlarning o'zaro bog'liqligini namoyish etishga yordam berishdir. Bunday darslar har bir o'quvchining faolligini talab qiladi, shuning uchun o'quvchilar bunday mashg'ulotni o'tkazishga tayyorlanishi kerak: dars mavzusi bo'yicha qo'shimcha adabiyotlarni taklif qilish, muayyan mavzularni tanlash, aniq ma'lumotlarga diqqatni qaratish talab etiladi. Binar bir necha fan ob'ektlarining integratsiyasiga asoslangan va turli xil pedagogik texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda, ularning tafakkurini rivojlantirishda, til vositalaridan unumli foydalangan holda o'zaro muloqot kirishishida, ya'ni lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishda muhim bosqichdir. Buyuk pedagog Yan Kamenskiyning "oltin qoida"si "Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari" asarida ta'riflangan bo'lib, unda o'qitilayotgan, o'rganilayotgan narsalarni ushlash, ko'rish, yeyish, hidlash kerakligi aytiladi: bu o'rganilayotgan material haqidagi ma'lumotlarning chuqur bo'lishiga, jarayonni teran anglashga va xotirada uzoq vaqt saqlanishiga olib kelishi e'tirof etilgan. Binar darslar ana shu "oltin qoida"ni amalga oshirish shakllaridan biridir. Shuningdek, hozirgi vaqtda o'quvchilarning turli – kommunikativ, lingvistik, paralinvestik kompetensiyalarini shakllantirish vazifalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Binar mashg'ulotlari ta'lim oluvchilarga tezkor, mantiqiy va kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, ushbu muammolarni hal qilishda sinfdoshlari bilan hamkorlikda ishlash imkoniyatini beradi. Binar usulini aynan takrorlash va mustahkamlash darslarida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday mashg'ulotlarda o'tilgan mavzular qayta yodga olinadi, nazariy ma'lumotlar amaliyotda qo'llanadi, bilimlar tizimlashtiradi va umumlashtiradi. O'quvchilar avval o'rganilgan materialni taqdim etishning o'zgacha variantlaridan foydalanadilar, vaziyatga ijodiy yondashadilar.

Shuningdek, binar dars quyidagi muammolarni hal qilishga yordam beradi:

- o'qituvchilarning hamkorligini rivojlantiradi, o'qituvchilar tarkibini birlashtirishga yordam beradi;
- o'quvchilar va o'qituvchilarning dunyoqarashi kengayadi;
- turli sohalaridagi bilimlarni birlashtiradi;
- o'quvchilarda ob'ektlarning izchilligi, dunyoning yaxlitligi to'g'risida ishonchni shakllantirishga yordam beradi;
- fanlarni o'rganish motivate siyasini oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi, chunki u bilimlarni amaliy qo'llash uchun sharoit yaratadi;

- o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini rivojlantiradi, chunki o'quvchilar darsga tayyorgarlikning bir qismini mustaqil ravishda va darsdan tashqari vaqtda amalga oshirishlari mumkin;
- tahliliy(analitik) qobiliyat va zukkolikni rivojlantiradi;
- o'quvchilarga ijodiy vaziyatlarda qaror qabul qilish imkonini beradi.

Darsning borishi:

Binar darslarida o'quvchilarni kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasblariga yo'naltirish ham muhim jihat hisoblanadi. Dars avvalida o'quvchilar qiziqishlariga ko'ra kichik guruhlariga bo'linadilar:

- 1-guruh - "Yosh tilshunoslar" guruhi
- 2-guruh - "Yosh adabiyotshunoslar" guruhi
- 3-guruh - "Yosh olimlar" guruhi
- 4-guruh - "Yosh dizaynerlar"
- 5- guruh - "Yosh tadbirkorlar" guruhi

Har bir guruhga o'ziga xos topshiriqlar beriladi. Matnda egalik qo'shimchalarini qo'llashga e'tibor qaratish kerakligi eslatiladi. Taqdimotlarni baholashda talaffuz qoidalar va gap urg'usi to'g'ri qo'llangani ahamiyatli ekanligi aytiladi.

Chiroyli va mazmunli nutq sohibi bo'lish uchun insonning so'z sandig'i, ya'ni lug'at boyligi ko'p bo'lishi kerak. "Yosh tilshunoslar" guruhi **gullar** so'zining shakldoshlari, ma'nodoshlari, bu so'zning ko'chma ma'nolari, kasbiy atama sifatida qo'llanishi haqida taqdimot tayyorlaydilar.

"Yosh adabiyotshunoslar" guruhi **gul** so'zi bilan bo'g'liq she'riy san'atlar haqida ma'lumotlarni bayon etadilar. O'z fikrlarini gul so'zi qo'llanilgan Navoiy, Bobur, Muqumiy baytlari, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf she'rlaridan parchalar bilan bezaydilar.

"Yosh olimlar" guruhi botanika fanida olgan bilimlari asosida gul va uning tuzilishi bo'yicha ilmiy taqdimot tayyorlaydilar.

Butun dunyoda , jumladan, yurtimizda landshaft dizaynenrlik sohasi rivojlanib bormoqda. "Yosh dizaynerlar" turli binolar, inshootlar, istirohat bog'larni bezash bo'yicha kreativ takliflarini taqdimotda ko'rsatib beradilar.

O'zbekistonimizning o'ziga xos gullaridan "Yosh tadbirkorlar" guruhi parfyumeriya mahsulotlari ishlab chiqish bo'yicha o'z takliflarini bayon etadilar.

O'z brendlarini yaratadilar.

Dars qiziqarli bo'lishi, va albatta, vaqtdan samarali foydalanish uchun yuqoridagi topshiriqlarni guruhlariga avvalroq berish maqsadga muvofiq. Taqdimotlarga tayyorlanish jarayonida o'quvchilar hamkorlikda izlanadilar. Fikrlarini turli rasmlar, slaydlar, elektron doska yordamida bayon etishlariga sharoit yaratilishi dars samaradorligini yanada orttiradi. O'quvchilar qizg'in muloqotga kirishadilar. Natijada ular o'rtasidagi

kommunikatsiya rivojlanadi. O'qituvchi darsda barchaning faol ishtirokini ta'minlashga harakat qilmog'i, ayniqsa, o'z fikrini aytishga qiynaladigan, tortinchoq o'quvchilarni ham ko'zdan qochirmasligi, ularni ruhlantirib, motivatsiya berib turmog'i darkior. "Yosh olimlar", "Yosh dizaynerlar", "Yosh tadbirkorlar" faoliyatini botanika fani o'qituvchisi fassilitator sifatida kuzatadi, maslahatlar beradi. Taqdimotlardan so'ng ma'lumotlarni izohlaydi va dars ishtirokchilarini baholaydi. Qolgan guruhlarini va mashg'ulot so'ngida barchani esa ona tili o'qituvchisi baholaydi.

XULOSA

Binar darsida quyidagilarga erishiladi:

1. O'quvchilar ona tili fani barcha fanlarni o'zlashtirish asosi ekanligiga yana bir bor amin bo'ladilar.
2. Barcha fanlar o'zaro uyg'unlikda taraqqiy etishi, Olam yagona sistema ekanligi ta'kidlanadi.
3. O'quvchilarning qiziqishlari e'tiborga olinadi, kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasblariga yo'naltiriladi.
4. Taqdimot va munozaralar davomida o'quvchilar til birliklaridan faol foydalanadilar. Natijada ularning lug'at boyligi ortadi, mantiqiy fikrlashi, linvistik, nutqiy, kommunikativ kompetensiyalari takomillashadi.
5. Nazariy bilimlarini amaliyotda, hayotiy vaziyatlarda qo'llash malakasi ortadi.
6. Bilim doirasi, dunyoqarashi, tasavvuri kengayadi.
7. Kompyuter savodxonligi, rassomlik, dizaynerlik qobiliyatlari rivojlanadi..

Eng asosiysi, o'tilgan mavzular yangi talqinda takrorlanadi, mustahkamlanadi - dars qiziqarli muhitda o'tgani, o'quvchilar zavq-shavqqa to'lgani uchun ularning xotirasida yaxshi saqlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 06.11.2020 йилдаги ПФ-6108-сон. <https://lex.uz/docs/5085999>
2. Р.Х.Джураев, Ў.Қ.Толипов, ва бошқалар. Педагогик атамалар луғати. Тошкент – 2008-136 бет
3. А.Г'уломов, М. Қодинова, М.Ерназаров, ва бoshq. Ona tili o'qitish metodikasi.-Т.: "Fan va texnologiya", 2012, 380 bet
4. Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / К. М. Mavlonova. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –224 b.
5. Azizxo'jaeva N.M. (2006) Pedtexnologiya va pedagogik mahorat. – Т.: "Fan, 61-69-b.
6. Берикханова А.Е. (-2017) Создание коллаборативной учебной среды как средство формирования успешности личности будущего учителя. Вестник КазНПУ. Алмата



7. Выготский Л.С. (2016) История развития высших психических функций// М.:Издательство Юрайт. –359с. – Серия: Антология мысли
8. Зиёмухаммедов Б. (2002) Янги педагогик технология: назария ва амалиёт. - Т.: “Chinor ENK”.
9. Макаренко А.С. (1972) Коллектив и воспитание личности. – М.: Педагогика, – 334 с.
10. Мавлонова Р.А. [va boshq.](2016) Педагогика. Дарслик. – Т.:«Наврўз», 105-б.
11. То'хлиев В., Shamsieva M., Ziyodova T.(2010) O'zbek tili o'qitish metodikasi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – T-176 b
12. G'ulomov A., Qodirov M.,(2001) Ona tili o'qitish metodikasi. “Universitet” nashriyoti.T. -380 b
13. Ziyodova T.(2001) O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. –T.: O'qituvchi, –80 b.
14. M.I.Maxmutov
<http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/openlessonfiles/1185>

